

RAQAMLI IQTISODIYOTDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xolmurotov Oybek Tursunmurotovich

Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyot kontekstida rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Raqamli moliyalashtirish vositalari, raqamli infratuzilma va elektron platformalar orqali xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi dinamikasi va investitsion muhitni raqamlashtirish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, raqamli iqtisodiyot, raqamli moliyalashtirish, aksiyalar, obligatsiyalar, kredit, modernizatsiya, moliya bozori, investitsion strategiya, investitsiya muhit

Аннотация. В статье изучаются роль и значение инвестиций в развитии экономики Узбекистана в контексте цифровой экономики. Анализируются стратегии привлечения иностранных и отечественных инвестиций посредством цифровых финансовых инструментов, цифровой инфраструктуры и электронных платформ. В работе также рассматривается динамика доли инвестиций в ВВП по секторам экономики и пути цифровизации инвестиционного климата.

Ключевые слова: инвестиции, цифровая экономика, цифровое финансирование, акции, облигации, кредит, модернизация, финансовый рынок, инвестиционная стратегия, инвестиционный климат.

Annotation. The article examines the role and significance of investments in the development of Uzbekistan’s economy within the context of the digital economy. It analyzes strategies for attracting foreign and domestic investments through digital financing tools, digital infrastructure, and electronic platforms. The article also explores the dynamics of the share of investments in GDP across various sectors of the economy and reviews approaches to digitalizing the investment environment.

Keywords: investment, digital economy, digital financing, shares, bonds, credit, modernization, financial market, investment strategy, investment environment.

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekistonda raqamli infratuzilma, elektron moliyaviy xizmatlar va onlayn investitsiya platformalarining kengayishi iqtisodiy o‘rishni ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati va investitsion muhitni modernizatsiya qilish yo‘llari o‘rganiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti ham raqamli transformatsiya bosqichiga kirib,

investitsiyalarni jalb qilishda yangi mexanizmlar va innovatsion yechimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Raqamli moliyalashtirish, elektron hukumat platformalari, fintech xizmatlari va raqamli infratuzilmaning rivoji iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar oqimini kuchaytirish, YaIMning tarkibiy o'sishini ta'minlash va investitsiya muhitini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari, strategiyalari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi dinamikasi, raqamli texnologiyalarning investitsiya muhitiga ta'siri hamda investitsion jarayonlarni raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi o'rganiladi.

Tadqiqotchilar Brynjolfsson va McAfee raqamli transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirish, investitsiya oqimlarini tezlashtirish va yangi bozorlarni yaratish imkonini berishini ta'kidlaydilar. OECDning so'nggi hisobotlarida esa raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish investitsiya jalb qilishning eng muhim shartlaridan biri ekani qayd etilgan. Shu bilan birga, fintech va texnologik innovatsiyalar investitsiyaga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, tranzaksiya qiymatini kamaytiradi va xorijiy kapital oqimini rag'batlantiradi. Zetsche, Arner va Buckleyning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, blokcheyn, kraudfanding va P2P-platformalar rivojlangan davlatlarda an'anaviy bank tizimiga muqobil yechimlar sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Raqamli hukumat (e-government) xizmatlarining joriy etilishi ham investitsiya muhitining shaffofligi va prediktivligini oshirishga xizmat qiladi. Jahon bankining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali investorlar uchun qulay ekotizim yaratiladi, soliq imtiyozlari va tezkor ruxsatnomalar orqali investitsiya jalb qilish samaradorligi ortadi. Estoniya, Singapur va BAA misollarida bunday raqamli yechimlar investitsiya oqimlarini sezilarli darajada oshirgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot strategiyasi asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari faol rivojlantirilmoqda. IT Park, Moliya vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligining hisobotlariga ko'ra, startaplar soni oshishi, fintech kompaniyalari bozorining kengayishi va raqamli to'lovlar ulushining ortishi investitsiya muhitining yaxshilanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi raqamli iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallashi kuzatiladi. Biroq, infratuzilma farqi, kadrlar salohiyati va kiberxavfsizlik masalalari hali ham dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyodlar sharhi. Investitsiya iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi rolini oshirish masalasini nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunda investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsiyalar investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga

bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar" deb ta'rif berilgan .

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot global miqyosda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar, elektron platformalar, onlayn tranzaksiyalar va raqamli moliyalashtirish vositalarining jadal rivojlanishi investitsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirib, kapital oqimlarining tezligi va sifatini oshirmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, investitsiyalarning shaffofligini ta'minlash va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish iqtisodiy o'sishning muhim shartiga aylangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish fintech vositalari, blokcheyn texnologiyalari, crowdfunding va elektron moliyaviy boshqaruv tizimlarini amaliyotga tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu yo'l orqali nafaqat investitsion oqimlarni kengaytirish, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish investitsiyalarni jalb qilish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Raqamli moliyalashtirish vositalari, elektron platformalar va fintech yechimlari orqali xorijiy va mahalliy investorlarning iqtisodiyot tarmoqlariga kirib kelishi tezlashadi. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari investitsiya oqimlarini shaffof va samarali boshqarishga yordam beradi, bu esa YaIMdagi investitsiyalar ulushining o'sishini rag'batlantiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya strategiyalarini modernizatsiya qilish va innovatsion moliyaviy vositalarni tatbiq etish O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Statistik tahlil, taqqoslama tahlil va dinamik ko'rsatkichlarni baholash usullari qo'llanildi. O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillardagi investitsiya oqimi, YaIMdagi investitsiyalar ulushi, kapital qo'yilmalar tarkibi va moliya bozorining raqamlashtirilish darajasi bo'yicha mavjud ochiq manbalar asos qilib olindi. Shuningdek, raqamli moliyalashtirish vositalarining samaradorligini tahlil qilishda xalqaro tajriba bilan solishtirish metodi qo'llanildi.


Tahlil va natijalar. Raqamli moliyalashtirish vositalari (raqamli to'lovlar, elektron obligatsiyalar, onlayn kreditlash, tokenlashtirilgan aktivlar) investitsiya jarayonining shaffofligini va tezligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli platformalar orqali xorijiy va mahalliy investorlarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kirib kelish dinamikasi barqaror o'smoqda. YaIMdagi investitsiyalar ulushi raqamli infratuzilma kengayishi bilan mutanosib ravishda ko'tarilayotgani kuzatildi O'zbekistonda 8000 ga yaqin xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 5600 ga yaqini faoliyat ko'rsatayotgani xabar qilingan. Ular orasida yirik xalqaro kompaniyalar (KIA, BAT Industries, Newmont va Coca Cola) bilan tuzilgan qo'shma korxonalar ham bor. Biroq, umumiy hisobda, O'zbekiston hozirgi vaqtda aholi soniga nisbatan va Markaziy Osiyoning qolgan qismi bilan solishtirganda mutlaq ko'rsatkichlarda juda kichik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilmoqda.

Globallashuvning yanada kengayishi bilanoq, ko'pgina korxonalar o'z faoliyatini tobora rivojlantirishga harakat qilishadi. Chunki, boshqa mamlakatda yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochish arzonroq ishlab chiqarish va mehnat xarajatlari imkoniyatlari berishi bilan jozibaliroqdek tuyuladi. Bundan tashqari, bu yirik korporatsiyalar ko'pincha eng kam soliq to'laydigan mamlakatlar bilan biznes yuritishga intilishadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanish siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish vakolatiga ega bo'lgan milliy investitsiyalarni rag'batlantirish agentliklari tashkil etilgan. U asosiy amalga oshirish masalalarini bayon qiladi va mintaqa bo'ylab agentliklar uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligini yanada oshirish uchun amaliy qo'llanmasi bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiyalarni jalb qilish strategiyasining maqsadi puxta o'ylangan taktikani amalga oshirish orqali erishish mumkin bo'lgan aniq maqsadlar to'plamiga asoslanganholda biznes investitsiyalarini jalb qilishning strategik rejasini ishlab chiqishdan iborat.

Ma'lumki, investitsion muhit yaratilishi lozim bo'lgan hududda xorijlik investorlar ushbu hudud statistikasi va yashash sharoitlari va darajalarini chuqur tahlil qilib ko'rishadi. Ushbu tahlil potensial xorijiy investorlarni aniqlab berishda va o'z mablag'arini yo'naltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



Rasm. Iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilingan investitsiyalarni YaIMdagi ulushi

Strategik korxonalar, jumladan, tabiiy resurslar va kommunal sohadagi eksportga yo'naltirilgan muhim korxonalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun asosiy nomzodlardir, biroq bu tarmoqlar O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiya maqsadlari sifatida sezilarli darajada cheklab qo'yilgan. Butun Markaziy

va Sharqiy Yevropa uchun o'tgan yillarda xususiylashtirish natijasida kelib chiqqan to'g'ridan-o'g'ri investitsiyalar umumiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining deyarli 49 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyoti, xususan, eksport tarmoqlari tovar ishlabchiqarishga yo'naltirilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2021-yilgi pandemiya asoratlari tufayli O'zbekistonga ham investitsiya hajmi biroz kamaydi. Ushbu ko'rsatkich 2020- yilgi holatga ko'ra 38,4 foiz tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib 33,3 foiz ga yaqinlashgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi ham yildan yilga yuqorilagani bois, ushbu tushish mamlakatimizga avvalgidek kuchli ta'sir o'tkazgani yo'q.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish uchun O'zbekiston bir nechta ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim:

Moliya bozorini chuqur raqamlashtirish: aksiyalar, obligatsiyalar va kredit modellarini elektronlashtirish orqali investorlar uchun qulay muhit yaratish.

Investitsion muhitni modernizatsiya qilish: elektron litsenziyalash, onlayn ro'yxatdan o'tish, investorlar uchun yagona raqamli portalni joriy etish.

Xalqaro investorlarga ochiqlikni kengaytirish: elektron yechimlar orqali investitsiya jarayonida shaffoflikni oshirish, risklarni kamaytirish.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: yuqori tezlikdagi internet, ma'lumotlar markazlari va raqamli xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotda barqaror investitsiya markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoev "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori –Toshkent, "Yngi O'zbekiston" 2020 yil 28-aprel 5-b. <https://president.uz/oz/lists/view/3848>

2. Maxmudov N.M., Avazov N.R. "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari": Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2019 y. - 4 b.

3. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi

4. G'ozibekov D .G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya» nashriyoti. 2022. 26 bet.

5. S. N. Sayfullayev Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 7-son

6. Rejapov Kh., Turgunov T., Kholmuminov Kh. Investment climate and directions for stimulation of attracting the foreign investment //The Scientific Heritage. 2021. '64-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investment-climate-and-directions-for-stimulation-of-attracting-the-foreign-investment>.